O'ZBEK VA TOJIK TILLARIDA AYRIM FRAZEMA VA PAREMALARNING SHAKLLANISH TARIXI

Xidirov R.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dosenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va tojik xalqlarining ayrim frazema va paremalarining tilda keng qo'llanishi va shakllana borishi, til egalarining madaniyati tarixi, urf-odatlari, ichki his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, hamiyatini aniqlash haqida ma'lumot beriladi. O'zbek va tojik tillarining parema va frazemalarga boyligi, ularning xilma-xilligi, leksikologiyada tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqish muammolari, tillarning nafaqat lug'aviy zaxirasining takomillashuviga, shuningdek bu xalqlarning uzoq tarixiy do'stlik ildizlari, hayotiy tajribalari va kuzatishlari, tafakkur qonuniyatlarini yorqinroq dalillash, tillardagi ayrim frazema va paremalarining xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. O'zbek va tojik tillarining maqol, hikmatli so'zlar va frazemalarining biri ikkinchisiga tematik o'xshashligi, bir-birini to'ldirishlik xususiyatlari, semasiologik jihatdan uyg'unligi bu ikki xalq o'tmishining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aloqalari natijasi ekanligi bayon etiladi

Tayanch so'zlar: *maqol, hikmatli so'z, parema, frazema, sariq matbuot, qizil oltin, semasiologiya.*

Аннотация. В статье представлена информация о широком использовании и формировании пословиц, мудрых изречений и идиом узбекского и таджикского народов в языке, истории культуры, традициях, внутренних чувствах, надеждах стремление носителей языка, а также об

определении их идентичности. Рассматривается богатство узбекского и таджикского языков пословицами и идиомами, их многообразие, проблемы изучения их места в лексикологии и специфические особенности, совершенствование не только лексического резерва языков, но и давние исторические корни дружбы этих народов, жизненный опыт и наблюдения, более четкое выявление законов мышления, омонимии, синонимии, антонимии и других особенностей некоторых идиом в языках. Утверждается, что тематическое сходство, взаимодополняющие черты и семасиологическая гармония пословиц, мудрых изречений и идиом узбекского и таджикского языков являются результатом социальных, экономических, политических и духовных связей прошлого этих двух народов.

***Ключевые слова**: пословица, мудрое изречение, парема, фразема, жёлтая пресса, красное золото, семасиология.*

Abstract. The article presents information about the widespread use and formation of proverbs, wise sayings and idioms of the Uzbek and Tajik peoples in the language, cultural history, traditions, inner feelings, hopes and aspirations of native speakers, as well as the definition of their identity. The article examines the richness of the Uzbek and Tajik languages in proverbs and idioms, their diversity, the problems of studying their place in lexicology, and their specific features. It also focuses on the improvement of not only the lexical reserve of these languages, but also on the long-standing historical roots of the friendship between these nations, as well as on the life experiences and observations that have led to a clearer understanding of the laws of thinking, homonymy, synonymy, antonymy, and other features of certain idioms in these languages. It is argued that the thematic similarities, complementary features, and semasiological harmony of

proverbs, wise sayings, and idioms in the Uzbek and Tajik languages are the result of the social, economic, political, and spiritual ties between these two nations in the past.

Keywords: *proverb, wise saying, paremia, phraseme, yellow press, red gold, semasiology.*

Xalqlar, millatlarning o‘zaro yaqinlashuvida, ular o‘rtasidagi do‘stlikning mustahkamlanishida, til bilimining ahamiyati beqiyos. Bu azaliy va abadiy haqiqat ming yillardan buyon xalqlar qalbidan joy olgan. (Mahmudov, 2015:6).

Xalqlarning maqol, hikmatli so‘zlar va frazemalarining tilda keng qo‘llanishi va shakllana borishini o‘rganish til egalarining madaniyati tarixi, urf odatlari, ichki his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, hamiyatini aniqlashga yordam beradi. «Frazeologik birliklar har qanday milliy tilning yuragidir, unda hayratlanarli darajada millatning ruhi va o‘ziga xosligi ifodalanadi». (Maslova, 2004:11).

O‘zbek va tojik tillarining parema va frazemalarga boyligini, ularning xilma-xilligini, leksikologiyada tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlarini keng qamrovli o‘rganib chiqish tilshunoslarning uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Parema va frazemalarni tadqiq etish o‘zbek va tojik tillarining nafaqat lug‘aviy zaxirasining takomillashuviga, shuningdek bu xalqlarning uzoq tarixiy do‘stlik ildizlari, hayotiy tajribalari va kuzatishlari, tafakkur qonuniyatlarini yorqinroq dalillashga imkon beradi. O‘zbek va tojik tillarining maqol, hikmatli so‘zlar va frazemalarining biri ikkinchisiga tematik o‘xshashligi, bir-birini to‘ldirishlik xususiyatlari, semasiologik jihatdan uyg‘unligi bu ikki xalq o‘tmishining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aloqalari natijasidir. Rus tilshunosi, frazeologiya sohasining yetuk mutaxassisi, Moskva shahar frazeologiyasi maktabi asoschisi, Veronika Nikolaevna Teliya frazemalar tarkibi haqida shunday baho beradi: «Tilning

frazeologik tarkibi – bu lingvokultural jamoaning milliy o'ziga xosligini aniqlaydigan ko'zgudir». (Teliya, 1996:104). Darhaqiqat, bu xalqlar og'zaki ijodi namunalarini o'rganish orqali psixolingvistika, etnolingvistika, sosiolingvistika, lingvokulturologiya va kognitolingvistika sohalari uchun yetarlicha manbalarga ega bo'lish mumkin. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida *«O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik»* (Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshi) maqoli bor. Maqolda *«o'kuz azaqi bo'lg'incha»* (ho'kizning oyog'i bo'lguncha) va *«buzag'u bashi bo'lsa yik»* (buzoqning boshi bo'lgan yaxshi) qismlari bir-biriga nisbatan antiteza shaklida birikib, vazifadoshlik (funksional) yo'li asosida paydo bo'lgan. Ma'nolaridan biri: *«o'kuz azaqi bo'lg'incha»* katta korxonaning oddiy ishchisi bo'lguncha, *«buzag'u bashi bo'lsa yik»* kichik korxonaning rahbari bo'lish yaxshi, shunga o'xshash ma'nolarni keltirish mumkin, umuman, *«mustaqillik - bo'ysunishdan yaxshi»* degan ma'noda qo'llanadi. (Koshg'ariy,1963:112). Yoki *«Tavg'ach xanning to'rqusi telim, tenglamazib bichmas»* (Qoraxitoy xoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi). Bu maqol metonimiya yo'li asosida yuzaga kelgan, to'rqusi telim, ya'ni gazmoli – boyliklaridan biri; ular tenglamazib bichmas – o'lchanmay, aniqlanmay sarflanmaydi. Bunda ishni boshida puxta o'ylash, ehtiyotkor bo'lishga undab va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uqtirilgan. (Qoshg'ariy, 1963:110). Tojik tilida *«Be pir marav tu dar amoni, harchand Iskandari zamoni»* (Sen qanchalik kuchli, baquvvat va dono bo'lsang ham, tajribali keksalar maslahatisiz, rahbarisiz biror ishni boshlama). (Kalontarov,1989:216). Bu maqol metonimiya yo'li bilan pir so'zi ota, keksa, rahbar so'zlarini qayta nomlash asosida paydo bo'lgan. Yoki «*Ba joygahi xud nigoh karda, poy daroz kun!»* (Ko'rpangga qarab oyoq uzat), ya'ni har kim o'z moliyaviy sharoitga qarab ish

qilishi, ortiqcha isrofgarchilikdan saqlanishi aytiladi. Maqolda *joygah* – ko'rpa lug'aviy birligi kishini yomon kunlardan asrovchi narsa ma'nosida kelgan, sinegdoxa yo'li bilan hosil bo'lgan. (Fozilov, 1976:200).

Parema va frazemalarda lisoniy birliklarning ifoda va mazmun jabhalari nomutanosiblikka asoslanadi. Frazemaning ifoda jabhasi, uning mazmun jabhasiga qaraganda, murakkabroqdir. (Berdialiev, Xidirov, 2013:123). Masalan, *Kampirning dardi – g'oza* lisoniy birligini olaylik. Bu - frazema, ya'ni frazeologik ibora, grammatik shakllangan uch leksemadan *kampirning, dardi, g'ozadan* tuzilgan. Biroq shu ibora tarkibida ulardan birortasi o'z nominativ (lug'aviy) ma'nosini saqlagan emas, maqsad degan ma'noga ega. Grammatik jihatdan shakllangan bu uch leksema o'zaro semantik bog'lanishga mutlaqo ega bo'lmagan *maqsad* ma'nosidagi sememaga tenglashgan. Bu frazeologik birlikning tojikcha ko'rinishida – *Dardi kampir g'oza* o'zbek tilida yuzaga kelgan hodisa singari uch leksema o'zaro birikib, umumtilda *maqsad* lug'aviy ma'no ifodasi uchun rasmiylashgan: *Kampirning dardi– g'oza - Dardi kampir g'oza*, ya'ni har kim o'z maqsadiga ega.

Oddiy ko'rinishdagi fazemalarning ham ma'nolari ancha bo'ladi, chunki iboralar hammasi majoziy ma'nolarda qo'llanadi, shuning uchun ham frazemalarda bir ma'noli va ko'p ma'noli atamalari qo'llanmaydi. Masalan: *osmon bilan yercha* frazemasini olib ko'radigan bo'lsak - nihoyat baland narsa; juda katta narsa ko'plab ma'nolarini ko'rsatish mumkin.

Frazemalarning perifraza ko'rinishi, ular paremalar singari sodda, ixcham, chuqur ma'noli barqaror so'zlar bog'lanmasidir. Masalan, o'zb. *aql chirog'i* (ilm), *umr bahori* (yoshlik), *bilim xazinasi* (kitob), *g'azal mulki sultoni* (mashhur

g'azalnavis), *qora oltin* (neft), *davramiz guli* (taniqli kishi); toj. *guli sari sabat* (sohibjashn/mavlud egasi), *charog'i aql* (donish), *bahori umr* (javoni) kabilar.

Bugungi kunda o'zbek tilida ***qizil oltin*** birikmasi za'faron (shafran) noyob shifobaxsh o'simlik shunday nomlanadi. Za'faron ziravori: qadimdan dunyodagi eng qimmatbaho va noyob o'simliklardan biri bo'lib, uning tansiqligi va yuqori bahosi uchun ***qizil oltin*** deb atashadi. O'zbekistonda, xususan, Jizzax viloyatida ham ushbu shifobaxsh o'simlikni yetishtirish keng yo'lga qo'yilgan.

Sariq matbuot iborasining kelib chiqishi ham qiziq tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan. 1895-yilda amerikalik grafik rassom Richard Autkault Nyu-Yorkdagi «The World» gazetasining bir qator sonlarida kulgili matnlarni rasmlar asosida nashr ettirgan. Chizmalar orasida turli kulgili so'zlar aytgan sariq ko'ylakli bola ham bo'lgan. Oradan ko'p o'tmay, boshqa bir gazeta —«New York Journal» ham shunga o'xshash chizmalar to'plamini chop qila boshlagan. Keyinchalik ikki gazeta o'rtasida o'sha sariq bola yuzasidan nizo kelib chiqqan. 1896-yilda «New York Press» muharriri Ervin Uordmen o'z jurnalida ikkala raqib gazetani "Sariq matbuot" deb atagan maqolasini nashr ettirgan. O'shandan beri sariq matbuot iborasi keng ishlatilib kelinmoqda. ***Sariq matbuot*** (tabloid pressa) — bu ishonchliligi past, asosan shov-shuvli, ko'pincha shaxsiy hayotga oid (mish-mishlar va mojarolar) ma'lumotlarni tarqatishga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalaridir. Ular o'z auditoriyasini jalb qilish va yuqori tiraj (reyting) yig'ish maqsadida ma'lumotlarni bo'rttirib yoki buzib ko'rsatadi.

Umuman frazema va paremalar inson ongining mahsuli bo'lib, aniq narsadan mavhum narsalarga qarab idrok qilishimiz, murakkab til hodisalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra ikki qardosh va qo'shni xalqlarning, ya'ni o'zbek va tojik tillari, shuningdek, ulardagi frazema va

paremalarning ilmiy jihatdan o‘rganib chiqish asosida quyidagilarga erishish mumkin:

1) ikki do‘st xalqlar tarixiy ma’naviy merosini saqlab qolish;
2) fan, madaniyat va maorif, klassik va hozirgi zamon adabiyoti asarlarini har ikki tilga tarjima qilish va qadimiy do‘stlik rishtalarini qayta tiklash;
3) ikki tomonlama manfaatli bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va madaniy-ma’rifiy aloqalarning o‘sishiga keng yo‘l ochish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdialiev A., Xidirov R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. Frazeologiya. Leksikografiya. - Xo‘jand, 2013. -150 b.
2. Farhangi zaboni tojiki. II jil, zeri tah. S. Nazarzoda va g‘.-Dushanbe, 2008.
3. Fozilov M. Farhangi zarbulmasal, maqol va aforizmhoi tojikiy-forsi. - Dushanbe: Irfon, 1976.- 368 s.
4. Kalontarov Ya.I. Mudrost' trex narodov. Pandu hikmathoi se xalq. Uch xalqning hikmatlari. - Dushanbe: Adib, 1989.-432 b.
5. Maslova V.A. Lingvokul'turologiya: ucheb.posobie dlya stud.vissh.ucheb. zavedeniy. 2-e izd.,- M.: Izdat.Sentr Akademiya, 2004.-272 s.
6. Mahmudov N. Odamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish. //O‘zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2015, 3-son. -B. 6-12.
7. Qoshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk.Tom 2.,-Toshkent, 1963.-427 b.
8. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya (Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti). -M.,1996 -284 s.

9. Xidirov R. Leksika tadjikskogo i uzbekskogo yazikov konsa XX – nachala XXI vekov: izmeneniya i novatsii. Monografiya .-Dushanbe, Irfon, 2010. -172 s.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildlik, A.Madvaliev tahriri ostida. -Toshkent, 2006-2008.
11. O'zbek xalq maqollari.To'plam. Ko'p tomlik.-Toshkent, 1989. -512 b.